ISNN:2181-1296



SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ ШАРОФА РАШИДОВА

SAMARKAND STATE UNIVERSITY NAMED AFTER SHAROF RASHIDOV

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК
SCIENTIFIC JOURNAL

GUMANITAR FANLAR SERIYASI

№ 2/2 (138)
2023

ISSN 2181-1296

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК SCIENTIFIC JOURNAL

2023-yil, 2-son 2-seriya (138) GUMANITAR FANLAR SERIYASI

Tarix, Falsafa, Filologiya, Huquqshunoslik, Pedagogika, O‘qitish metodikasi, Psixologiya, Sotsiologiya, Siyosiy fanlar

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro‘yxatdan o‘tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR **R. I. XALMURADOV, t.f.d., professor**
BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARLARI: **H.A. XUSHVAQTOV, f-m.f.d., dotsent A. M. NASIMOV, t.f.d., professor**

TAHRIRIYAT KENGASHI:

S. S. G‘ULOMOV	- O‘zFA akademigi
M.Q. MUXIDDINOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
SH.A.HASANOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
S.A.KARIMOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
N. Sh. SHODIEV	- ped.f.d., professor (SamDU)
M.X.LUTFULLAYEV	- ped.f.d., professor (SamDU)
HIROAKI HUZIIE	- Osaka universiteti professori (Yaponiya)
A.B.PARDAYEV	- fil.f.d., professor (SamDU)
SH.Y.ZIYODOV	- fil.f.d., dotsent (Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi)
J.Y.YAXSHILIKOV	- f.f.d., professor (SamDU)
SH.SH.NEGMATOVA	- f.f.d., professor (SamDU)
N.U.ARABOV	- i.f.d., professor (SamDU)
B.E.ERGASHEV	- t. f. d., professor (SamDU)
B.S.G‘OYIBOV	- t.f.d., (SamDU)
D.Q.USMONOVA	- i.f.n., dotsent (SamDU)
F.SH.RASHIDOVA	- t.f.f.d., dotsent (SamDU)
O.S.YUSUPOVA	- f.f.n., dotsent (SamDU)
O.S.QODIROV	- p.f.n., dotsent (SamDU)
S.I.MUXIDDINOV	- t.f.f.d., (SamDU)

Obuna indeksi – yakka tartibdagi obunachilar uchun **- 5583,**
tashkilot, korxonalar uchun **- 5584**

MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

MUNDARIJA	
Atayeva G.R. *O‘smirlar mehnat faoliyatini oila va maktabda o‘zaro muvofiqlashtirishning psixologik samaradorligi……*	4-8
Yakubova M. *Nemis sayohatchisi xans-xermann fon shvaynitsning esdaliklaridan samarqand tarixiga oid ayrim lavhalar……*	9-14
Marufov E.U. *Talabalarning ingliz tili fonetik kompetensiyasini rivojlantirishdagi qiyinchiliklar……*	15-20
Aliyev O.O. *O‘zbekistonda axborot xavfsizligi siyosatining huquqiy asoslarini shakllanishi va rivojlanishi*	21-29
Mirzayev R.I., Ibodullayev S.R. *Korrupsiya va uning namoyon bo’lish shakllari……*	30-34
Rahimova G., Kiyamova S. *Umumta’lim maktablarida o‘quvchilarga Alisher Navoiy hayoti va ijodiini o‘rgatishda “Muammoli ta’lim” metodidan foydalanishning ahamiyati……*	35-42
Abdullayeva G.R. *Boshlang‘ich sinf tabiatshunoslik darslarini adekvat modellashtirish tizimini takomillashtirish*	43-47
Ochilova G.U. *Some cases of transmission of kinship terms in uzbek and english……*	48-52
Кадымова Д.Р., Рахмонкулова Ш.О. *Особенности реализация мотива сна в русской и зарубежной литературы (На примере произведений эпохи античности и средневековья, А.С. Пушкина «Евгения Онегина», И. А. «Обломова» Гончарова И «Преступления и наказания» Ф. М. Достоевского)……*	53-60
Radjabova D.N. *Rossiya sharqshunosligi ilmiy maktabi va o’rta osiyo tarixi masalalarining o’rganilishi……*	61-65
Мамасолиев И.Ф., Усманова Н.К. *Оригинальность баллад в.а. жуковского в русской словесности……*	66-71
Xayriyev I. *Aql, hissiyot va iroda integratsiyasi……*	72-76
Kenjayeva M.A. *Ona tili fanini o`qitishda tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishda ta’lim exnologiyalardan foydalanish……*	77-81
Kuldashev M., Saidov U. *Jamoat xavfsizligini ta’minlashda yo‘l-transport hodisalarini oldini olishning o‘rni……*	82-86
Uzoqov M.F. *Attraktiv munosabatlarning o‘rni va pedagogik taxlili hamda uni hozirgi bosqichda maktabgacha ta’lim tizimida qo‘llash xususiyatlari……*	87-91
Xasanova M.N. *Elektron platforma vositasida muhandislik grafikasi fanini o‘qitishda talabalarning grafik ishlari sifatini rivojlantirishning pedogogik tavsifi……*	92-96
Аллаярова Н.Я. *Роль образовательных компетенций в развитии гендерно-равноправного мышления учащихся……*	97-101

Негматова Н.Н. *Принцип учета особенностей родного языка учащихся при обучении русскому языку в полиэтнической среде, методы и их классификация*……	102-106
Панжиева Н.Н. *Роль и значение развития навыков критического мышления у будущих учителей информатики* ……	107-116
Усманова Н.К., Сайфиддинова М. *«Мир детства» в философско-художественном и идейном воплощении в творчестве А.Платонова*……	117-122
Turniyazova R.B. *Emotional causation*……	123-128
F.F.Xatamov *Huquqning regulyativ funksiyasi va shaxs mas'ulligi*……	129-132
Xashimov Sh.J. *Milliy turizm va o'zbekistonning xalqaro imidji yuksalishining ijtimoiy-falsafiy masalalari*…….	133-137
Xushmurodova Sh.Sh. *Impact of bilingualism on third language acquisition and bilingual teaching*……	138-146
Mustafayeva M.SH. *Aleksitimiya fenomeni va uning namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari*……	147-151
Кадымова Д.Р., Ибрагимова Э.О. *Роль женщины и ее и судьба в произведении Л.Н.Толстого «анна каренина» и «госпожа бовари» .Флобера*……	152-158
Xoliqulov A.Y. *Ilk o'rta asrlar sug'dda bozorlar taraqqiyoti*……	159-163
Azizkulov A., To'g'izov N. *Boburiylar saltanatida ta'lim tizimi*……	164-168
Baysariyeva Ch.U. *Elektron ta'lim resurslari (etr) yordamida talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish usullari, shakllari va vositalari*……	169-175
Amonturdiyeva Sh.R. *Diniy matnlarda mustaqil so'z turkumlarining ifodalanishi*……	176-179
Mustafayev Sh.N. *O'zbekiston oliy ta'lim tizimini modernizatsiyalashning artpedagogik asoslari*……	180-184
Rustamova Sh.Sh. *Investigating communicative competence as a vital of pedagogical category*……	185-189
Jumanov Sh. *Ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi faoliyatining funksional pedagogik tahlili*.....	190-194
Tuxtayeva Sh.M. *Bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilariga matematika darslarida integratsiyalashgan ta'limni tashkillashtirish haqida*.....	195-200
Mualliflarga	

UDK: 159.9 **DOI:** https://doi.org/10.59251/2181-1296.2023.v2.138.2.2205

AQL, HISSIYOT VA IRODA INTEGRATSIYASI

I.Xayriyev
O‘zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti

Annotatsiya. Iroda kategoriyasi ko‘p yillik tadqiqot tarixiga ega bo‘lganligi tufayli falsafa va psixologiya fanlarining asosiy uchta (aql, hissiyot, iroda) kategoriyasining biri sifatida yuqori mavqeni egallab kelmoqda. Maqolada shaxsning individual-psixologik xususiyatlariga ko‘ra aql, hissiyot va irodaning o‘zaro integrativ rivojlanishi tufayli inson kamolotining refleksiya ta’sirida reallikka aylanishi dalillangan.

Kalit so‘zlar: aql, his, iroda, kishan, javhar, xohish, iztirob, tahqir, nafs, sintez, istak, yovuzlik, ezgulik.

Интеграция разума, эмоций и воли

Аннотация. Поскольку воля имеет долгую историю исследования, она занимает высокое положение как одна из трех основных категорий философии и психологии (разум, эмоция, воля). По этой причине в статье показана трансформация зрелости человека под влиянием рефлексии за счет взаимного интегративного развития разума, эмоций и воли, в соответствии с индивидуально-психологическими особенностями людей.

Ключевые слова: разум, эмоция, воля, цепь, желание, орудие, страдание, синтез, искушение, нападение.

Integration of mind, emotion and will

Abstract. Since the will has a long history of research, it occupies a high position as one of the three main categories of philosophy and psychology (mind, emotion, will). For this reason, the article shows the transformation of human maturity under the influence of reflection due to the mutual integrative development of mind, emotions and will according to the individual-psychological characteristics of people.

Key words: mind, emotion, will, chain, desire, tool, ore, anguish, synthesis, temptation, attack.

Har qanday inson hayotida muvaffaqiyatlarga erishishni, doimo aqliga suyanib qaror qabul qilishni, mansab pillapoyalarida yuqoriga ko‘tarilishni, hislaridan ustun bo‘lishni, atrofidagi odamlar u bilan hisoblashishlarini juda juda xohlaydi. Shu yo‘lda inson faqatgina aqliga, tafakkuriga, irodasiga suyanib yutuqlarga erishishga qodir. Albatta, har qanday insonning o‘zidagi sog‘lom fikrni va aqliy muvofiqlikni saqlab qolishdagi birdan-bir to‘g‘ri yo‘l – bu teran aql-idrokka ega bo‘lishidir. Buning uchun hayotda tinimsiz harakat qilishing, yaratishing, vaziyat bilan kurashga kirishishing, uni engishing yoki o‘zingni engilmagandek his qilishing juda zarur. Agar inson hayotda to‘g‘ri yo‘lni topgan bo‘lsa, shu yo‘nalishda aqlini, bilimini, bor kuchini, mehnatsevarligini, irodasini namoyon qilib, orqaga qaytmasligi, umid ipini aslo yo‘qotmasligi zarur. Mehnatsevarlik – bu vaqtingni bekor o‘tkazmasliging, har doim biror foydali ish bilan shug‘ullanishing, befoyda ishlardan voz kechishing, doimo o‘z aql-idrokingga suyanishing, boshlagan ishingni oxiriga etkazishing demakdir.

Insondagi aql-idrok quvvatining mo‘‘tadilligi, avvalo tadbirning chiroyli, zehnning tiniq, fikr-o‘ylarning to‘g‘ri va ishonchli bo‘lishini ta’minlaydi. Shu boisdan sening aql-idroking – saxovat eshiklari va saodat xazinalarining kalitidir. Dunyo noz-ne’matlariga erishishingning eng ishonchli yo‘li ham sendagi aql-idrokka bog‘liq. Bu yo‘lda senga hamisha aqling hukmronlik qilishi shart. Donishmandlardan

biri: “Olamda eng avval inson aqli yaralgan. Aql qalb posbonidir. Aql yana uch qo‘riqchi: til, ko‘z, quloqning ustidan ham posbonlik qilguvchidir. Zero, ezgulik va yovuzlik aynan ana shu uch a’zo orqali qalbga kirib boradi” [1: – 450 b.], – deya ta’kidlaydi.

Shunday ekan, shaxslararo munosabatlarda ismi tez-tez tilga olinayotgan odamlar biror bir ishni uddalayotgan odamlardir. Bu jarayonda gap u hali yaxshi yoki yomon ish qilganligi haqida ketmayapti. Hayotda ismimiz boshqalar tomonidan tez-tez tilga olinayapti ekan, bu bizni har qanday ishni qila olishga qodirligimizni tan olishdir. Endi esa, biz qilgan ishning yaxshi yoki yomon qismiga kelsak. Bizga ham ayrimlarimiz uchun yaxshi bir ishni, boshqalarimiz uchun yomon bir narsani uddalashimizga yordam berayotgan narsa nima? Unutma, nomimizni tilga olinishiga sabab bo‘layotgan narsa, aslida – aqldir. Masalan, natsizmni o‘ylab topgan, butun bir xalqni qarshisiga chiqib, ularni millatchilik bilan kasallantirgan Gitler buncha yovuzlikni qaysi aql bilan qilgan?

Bizning bilganimiz ijobiy ma’nodagi aqlmi yoki boshqa bir aqlmi? Bilishimizcha, aqlning asosida (javharida) toza narsa bor edi-ku! Nima bo‘ldiki, aql bugun teskari tomonga harakatlanayapti! Aslida, insondagi aql ikki holatda o‘zgaradi. Aql yo ko‘p o‘rganib yoki iztirob chekib o‘zgaradi. Bizning barcha buyukligimiz, aqlimiz, xursandchiligimiz va iztiroblarimiz ichimizda yashiringan. Faoliyatda ulug‘likka, muvaffaqiyatga, yutuqqa, shon-sharafga, g‘alabaga erishishimizning yagona usuli – bu shaxsiy fikrlarimizning ulug‘vorligida. Aslida, biz nimani o‘ylasak – o‘shamiz.

Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, hayotiy muammolar, sinov va tahqirlar ba’zi odamlardagi mudroq holdagi aql nishonalarining “uyg‘onishi”ga turtki bo‘ladi. Muayyan “ta’sirlardan” so‘nggina insonlardagi aql nishonalari harakatga keladi va olamshumul yangiliklar hamda ixtirolar sodir bo‘ladi. Masalan, XX asrda Nobel mukofotiga loyiq topilgan yozuvchilar: Yudjin O‘Nil, Sinkler Lyuis, Uilyam Folkner, Ernest Xeminguey, Jon Steynbek, A.I.Soljinitsin kabi insonlar tahqir va iztiroblardan keyingina, ular jamiyatga nodir asarlarni taqdim etishgan.

Albatta, turmushda har bir narsaning o‘z vazifasi bor. Aqlning ham o‘z vazifalari bor. “Aql” so‘zi arab tilidan olingan bo‘lib, lug‘aviy “kishan” degan ma’noni anglatadi. Ya’ni, u biror narsani kishanlab, ushlab turganligi uchun aql deyiladi. Kishan nimani ushlaydi? – desa, avvalo nafsni ushlab turishi haqida gap borayotgan bo‘ladi. Agar aql nafsni kishanlay olmasa, u o‘z vazifasini bajarmagan bo‘ladi. Insonni nafs boshqarayotgan bo‘lsa, demak, u har qanday ishni yaxshi bajarayotgan bo‘lsa ham, aql bilan ishlamayotgan bo‘ladi. Agar aql ishlasa, nafsni kishanlab, insonni yuqori martabalarga, ulug‘likka erishtiradi. Lekin insonlarni bugungi kunda tubanlikka tushib ketayotganligining sababi aynan aql ishlamayotganligi, ya’ni uni nafs boshqarib, havoyi nafsiga ergashib ketayotganligini bildiradi. Bu holatni chuqur tahlil qilgan Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf o‘zining “Ruhiy tarbiya” kitobida: “Aql bandaga Alloh taolo tomonidan berilgan ulkan ne’mat bo‘lib, u ila inson narsalarning haqiyqatini idrok qiladi. Oqil kishi zakovat va farosat sohibi bo‘lsa, g‘ururga ketishdan o‘zini tiyishi oson bo‘ladi. Ammo zehni past va befarosat odamlarning bu ishni qilishlari qiyin” [2: – 148 b.] deya ta’kidlaydi.

Bahsda, ehtiroslar jumbushga kelganda kim oldin gapdan qolsa, aslida o‘sha aqlli bo‘ladi. Aqlli inson janjalni yoqtirmaydi, emotsiyaga berilmaydi, biroq suhbatdoshining fikrini tinglashga qodir. Ammo tarbiyasiz (aqlsiz) odam uchun bahsni yakunlash juda qiyin. Chunki tarbiyasiz kimsa aslo aqlli insonlarni tan olishni xohlamaydi. Suhbatdoshi ayrim vaqtlarda to‘g‘ri gapni aytayotgan bo‘lsa ham tarbiyasiz o‘z fikrida qat’iy turishga odatlangan. Tarbiyasiz uchun vaziyatdan g‘olib chiqishi muhim, shu boisdan u o‘z mulohazalarini doimo to‘g‘ri deb hisoblaydi. Tarbiyasiz kishilar vaqtini behuda sarflab, o‘zgalarning hayoti va tamoyillarini muhokama qilishni xush ko‘radi. Ular o‘zgalarning fikri va maslahatlarini qabul qilolmaganliklari, dunyoga o‘zgacha nazar tashlashga tayyor emasliklari sabab boshqalarni muhokama qiladi.

Balki, aqlning eng katta g‘alabalari, ehtimol, ehtiroslar tufayli ro‘yobga chiqqandir. Ammo ba’zi odamlar ehtiroslarni qoralaydi, hatto odamzotga xos barcha baxtsizliklarni ehtirosdan ko‘radi. Lekin ayni paytda turmushda ehtiroslar barcha shodliklarimizning manbai ekanligini unutib qo‘yamiz. Aslida, ehtiroslarning mohiyatiga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishimiz darkor. Chunki ehtiros

harakatsizlikning dushmanidir. Shu boisdan ehtirossiz bu dunyoda san'at ham, fan ham rivojlanmaydi. Har qanday holatda ham ehtiroslar doimo ong, aql nazoratida bo‘lishi shart. Boshqa holatlarda ehtiros tanqidga mahkum, ya'ni ehtiros paytida biror ish qilish – go‘yoki bo‘ron paytida dengizga tushishga tengdir.

Shunday ekan, aql doimo ehtiros ustidan nazorat o‘rnatgan bo‘lishi zarur. Chunki, biz aql bilan ehtiroslarni boshqarib turganimizdagina u foydali, ammo biz ehtirosga qul bo‘lganimizda esa hammasi ahmoqonadir. Hayotda ehtirosning rolini baholashda doimo uning yo‘nalishini, inson qaysi tomonga ketayotganini hisobga olishi zarur. Muhimi, kundalik hayotda ehtiroslar insonni foydali, ijtimoiy va shaxsiy mohiyatli ishlar sari undaydigan bo‘lsin.

Inson irodali bo‘lsagina nafsiga ham, aqliga ham hukmronlik qila oladi. Irodalilik – bu insonning ruhi bilan aqlini, fikrini bir joyga "to‘plab" harakat qilishidir. Unutma, har qanday xatti-harakating – fikrlaring mevasidir. Fikring teran bo‘lsa, barcha ishlaring yaxshi ketadi. Fikrlar teran bo‘lib, inson irodasi yordamida nafsini aqliga bo‘yinsundirsagina, u foyda keltiruvchi nafsga aylanadi. Bugungi kunda aql nafsga asir bo‘lgani uchun o‘z vazifasini bajarmayapti. Lekin bari bir qandaydir vazifani bajarayapti. Aslida, nafs o‘z tabiatiga ko‘ra, istakdan iborat. Lekin nafsning istakni amalga oshirish uchun aqlga, ilmga ehtiyoji bor. Psixologik jihatdan istak – shaxs tomonidan ehtiyojning etarli darajada anglanganligi bilan tavsiflanuvchi irodaviy faoliyatning motivi. Istakda nafaqat ehtiyoj ob'ekti, balki uni qondirishning yo‘l-yo‘riqlari, vositalari ham shaxs tomonidan tushuniladi hamda anglaniladi. SHu boisdan fransuz faylasufi va olimi Rene Dekart yozadi: "Dunyoni tartibga solishga urinma, eng avval o‘z istaklaringni boshqara bil" [4: – 256.].

Bugungi kunga kelib hayotimizda nimalar o‘zgardiki, aql ziyon beruvchi, bir qism odamlar uchun xizmat qiluvchi vositaga aylandi. Yoki, XXI asrga kelib hayotimizda inqilobiy o‘zgarishlar yuz berdimi? Bilib qo‘y, har qanday shaxsning takomillashuvi aql, his, iroda va sa'y-harakatlar sinteziga bog‘liq bo‘ladi. Odam ichki birlikdagina har qanday to‘siqlarni bartaraf qila oladi. Ammo har qanday to‘siqni A.Matrosovga o‘xshab ambrazurani ko‘krak bilan to‘sish qahramonlik bo‘lavermaydi. To‘siqlarni engishda iroda kuchiga qaraganda aql kuchi kam emas. Shu boisdan xalqimiz "aqlli odam tog‘ni oshib o‘tmaydi, aksincha, aqlli odam tog‘ni aylanib o‘tib ketadi", deydilar. Shu boisdan bizga bolaligimizdanoq ruh jism uchun asosiy narsa, deb o‘rgatilgan edi. Aql – shu jismning vaziri. Nafs – dushman. Bizga doimo nafsni illat deyishgan edi. Nima bo‘ldiki, bizning janobi "vazir" insoniyatning ziyoni uchun faoliyat yuritishni boshladi. Bu erda gap o‘zimiz tomondagilarni oqlab, qarshimizdagilarni qoralash haqida ketmayapti. Biz tomon tanlamaymiz. Biznikilar unday, qarshidagilar bunday deya olmaymiz. Tarafkashlik qilsak, biz fikrda adolatsizlik qilgan bo‘lamiz.

Men, aslida, aqlni vosita deb o‘ylayman. Shu boisdan aqlni yaxshi tarafga ham, yomon tarafga ham ishlatsa bo‘ladi. Ayyorlik, johillik, kibr, qo‘rqoqlik, makkorlik, idroksizlik, yolg‘onchilik kabi illatlar aqlni yomon tarafga boshlaydi. Masalan, odam hayotda g‘oyat aqlli bo‘lishi mumkin. Lekin u ma'naviy jihatdan tarbiya ko‘rmagan bo‘lsa, komillikka da'vo qilolmaydi. Shu boisdan Teador Ruzvelt yozadi: "Insonni axloq jihatidan tarbiyalamasdan turib intellektual jihatdan tarbiyalash bu jamiyat uchun tahdid demakdir" [6. https://t.me/Samarqand_live]. Axloqan pok insonning aqli ezgu ishlarga sarflanadi va aksincha, axloqan nopok odamning aqli yomon ishlarga sarflanib, insoniyat boshiga halokat keltiradi. Bu jarayonda aynan iroda odamning jamiyat qonunlariga amal qilishiga yordam beradi, yovuzlik va ezgulikni farqlashga undaydi.

Demak, iroda inson axloqi bilan chambarchas bog‘liq. Firavnni olaylik. Uning aqli ham, bilimi ham bo‘lgan. Lekin u johil bo‘lgani bois aqlini noto‘g‘ri yo‘nalishga ishlatgan. Aql qachon shunaqa holatga tushadi? Aql o‘zining egasini tanimasagina shunday holatga tushadi. Aql o‘zining egasini tanimasa, faqat o‘zini o‘ziga xo‘jayin deb biladigan darajaga kelsa, Firavn darajasiga chiqa boshlaydi. Gitler yoki boshqa diktator bo‘lsin, ularning aqli yovuzlikka xizmat qiladi. Aslida, ular juda aqlli bo‘lishgan. Hammasini ularning xarakteridagi noto‘g‘ri yo‘nalish hal qilgan. Shunday ekan, iroda nafaqat real hodisa, balki mustaqil psixologik hodisadir. Irodaning real hodisa ekanligini tavsiflash jarayonida

Aflotun inson hayotini jang aravasiga taqqoslaydi. Jang aravasini tortayotgan ikkala ot ham oldinga o‘shqiradi. Ammo jang aravasini aql boshqaradi. Shu jarayonda hissiy, aqliy va irodaviy jarayonlar to‘qnashadi. Shu asosda rus olimi V.I.Selivanov yozadi: “Agar inson aqli ob’ektiv borliqni ong orqali tavsiflasa, hissiyot ham ong orqali ob’ektiv borliqni tavsiflaydi. Iroda esa insonni tashqi olamdagi harakatini boshqarishni tavsiflaydi” [3: – 91-b.]. Demak, iroda – aql va axloqiy hislarning faoliyatga xos tomonidir.

Hayotda insonlarning bir-birlariga oqilona munosabati juda muhimdir. Biz tirik jonmiz, shu boisdan yuragimiz urib turibdi, nafas olib turibmiz. Nima bo‘lishidan qat’iy nazar, atrofimizdagi insonlarga aql, muhabbat bilan munosabatimizgina bizni hayotda qutqaradigan narsadir. Qolgan hamma narsa o‘zimiz uchun qilinadigan ishlardir. Yotib olib qur’on yodlasak, kechalari bilan xatim qilsak, kechalari bilan ibodat qilsak, bularning hammasi o‘zimiz uchundir. Lekin bir parcha nonni kimgadir bersak, biz bu ishni o‘zimiz uchun qilmayapmiz. Bu holat hayotda juda muhim narsa. Hayotimizda bir ishlar borki, uni faqat o‘zimiz uchun qilamiz. Masalan, tengdoshlarimiz bilan hovlida, maktabda birga o‘ynaymiz, ta’lim olamiz, mehnat qilamiz, yaratamiz, rivojlanamiz. Bularning hammasi o‘zimiz uchun. Biz hayotimiz davomida boshqalar uchun ham biror ish qilayapmizmi? Bo‘lsa, voajab, qanday yaxshi! Albatta, insonning boshqalar uchun o‘zini fido qilib yashashi yaxshi. Ammo, har qanday fidokorliklarni, muhabbatni ham chegarasi bor. Lekin bu ish shu chegaragacha bo‘lsa, tushunarli. Men insonning o‘ziga ziyoni bo‘ladigan vaziyatda boshqani o‘ylashini aqlimga, tafakkurimga sig‘dirolmayman. Bu mantiqsizlik. Insonlarning birini biriga foydasi tegishi o‘ziga ziyon keladigan nuqtagachadir. Chegaradan u yog‘i yo fanatizmga yoki devonalikka borib taqaladi. Tabiiyki, biz ham har bir yaxshilikni e’tiqodimizga, qarashlarimizga, fikrimizga, hayot tarzimizga, oilamizga va boshqa holatlarimizga ziyon bo‘ladigan darajada fidokorlik ko‘rsatib qilmaymiz. Eng asosiysi, biz o‘zimizni, g‘oyamizni, ne’matlarimizni himoya qiladigan darajada mard bo‘lamiz.

Aqlimizni, tafakkurimizni shakllantirish uchun bizga avvalo, bilim kerak. Xuddi ruhni, qalbni qo‘llab-quvvatlab turish kerak bo‘lganidek, aqlni ham qo‘llab-quvvatlash kerak. Bu jarayonda hamma narsa bizdagi mavjud tushunchaga bog‘liq bo‘ladi. Tushuncha – narsa va hodisalarning umumiy, muhim va farq qiladigan belgilarini aks ettiruvchi fikrdir. SHunday ekan, tushunchani qanaqa ishlatish sizdagi aqlga bog‘liq. Aslida, tushuncha qaerdan kelib chiqadi? Tushuncha nafaqat aytmoqchi bo‘lgan gapimizning mohiyatigina emas, balki miyamizda qanaqa tushuncha borligidadir. Men aytmoqchi bo‘lgan narsa shuki, hamma narsa bizning katta avloddan, ota-onamizdan olgan tarbiyamizga bog‘liq. Bilamizki, yangi tug‘ilgan bolaning holati ulg‘aygan sari o‘zgarib boradi. Xo‘sh, bu jarayonda nima o‘zgaradi? Chunki, irsiyat, atrof muhit, oiladagi tarbiya, olingan ilmlarning hammasi bolaga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Ya’ni, sizning o‘zingiz nimadan iboratsiz? Sizdagi boshlang‘ich soflik saqlanib qolganmi? Yoki munosabatlardagi bir necha ta’sirlar aqlingizni bevosita manfaatga burib yubordimi? Balki tarbiyaning, muhitning ta’sirida aqlingiz keyinchalik boshqacharoq qo‘llanilgan bo‘lishi ham mumkin. Lekin bu erda ham aql sizning manfaatingizga xizmat qilgan bo‘lardi. Ma’lum sharoit ta’siri ostida vujudga kelib, mustahkamlanib qolgan va bajarib turishi kishining ehtiyojiga aylangan harakatlar odat deyiladi. Aslida, odat kishining ikkinchi tabiatidir. Shu boisdan rus psixologi va pedagogi K.D.Ushinskiy yozadi: “Yaxshi odat – bu ma’naviy boylikdir. Yaxshi odatlar insonning asab tizimiga o‘rnashib, uzluksiz rivojlanib boradi va undan odamlar butun umr bo‘yi foydalanadilar” [5: – 176 b.].

Demak, aql o‘tkirligini saqlab turishda odatlarning o‘rni beqiyosdir. Chunki miya ham odamning mushaklari singari doimiy ravishda mashq qilishni talab qiladi. Aqlni faol holatda tutib turishning jiddiy kuch sarflashni talab qilmaydigan belgilangan usullari mavjud. Quyidagi harakatlarni muntazam ravishda bajarish miya faoliyatining jadalligini uzoq vaqt saqlab qolishga yordam beradi. Bu usullar quyidagilardan iborat:

1. Mumtoz musiqa eshiting. Olimlar tomonidan har kuni mumtoz musiqa eshitish nafaqat stressni pasaytirishi, balki aqliy qobiliyatlarni oshirishi aniqlangan.

2. Har kuni dunyo to‘g‘risida biror-bir yangilikni o‘rganing. Bir kunda yarim soat vaqtingizni ensiklopediyalar, lug‘at, badiiy yoki ilmiy adabiyotlar, bilim orttiruvchi jurnallar yoki saytlarga bag‘ishlang. Har kuni dunyo to‘g‘risida bir necha yangi va qiziqarli voqealarni eslab qolish nafaqat bilimingizni oshiradi, balki aqlni faol holda tutib turishga ham yordam beradi.

3. Qaddingizni to‘g‘ri tuting. Qomatni rostlash qon aylanishini yaxshilaydi, bu esa o‘z navbatida havoning miyaga yaxshi etib borishini ta’minlaydi.

4. Meditatsiya bilan shug‘ullaning. Xo‘sh, meditatsiya nima? Meditatsiya lotincha meditation so‘zidan olingan bo‘lib, *mushohada qilish, o‘ylash* degan ma’nolarni anglatadi. Ko‘pchilik tadqiqotlar har kuni meditatsiyani amalga oshirish aqlni chiniqtirishga, diqqatni bir joyga to‘plashga va xotirani yaxshilashga yordam berishini tasdiqlaydi. Meditatsiya yordamida diqqatni bir joyga to‘plash miyada fiziologik o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi.

5. Jismoniy mashqlar bajaring. Jismoniy mashqlar miyaga qon borishini tezlashtiradi, bu esa yangi neyronlar va ular orasidagi aloqalar paydo bo‘lishiga yordam beradi. Har kuni ertalab yugurish, sport zaliga qatnash, hatto biroz sayr qilish – bularning hammasi miya faoliyatini yaxshilaydi.

6. Kuling. Kulgu har qanday hayot qiyinchiliklariga qarshi kurashda har yoqlama qurol hisoblanadi. Shuningdek, u miyani mashq qildiruvchi ajoyib vosita hamdir.

Buyuk insonlar faqatgina fidoyiligi, tashabbuskorligi, yaratuvchanligi, mardligi, aql-idroki, tafakkuri, bukilmas irodasi tufayligina insoniyat tarixida o‘chmas iz qoldiradi. Aslida, aql, hissiyot va iroda ma’naviy jasorat mahsulidir. SHunday ekan, inson hayotda o‘zidan iz qoldirishi uchun unda ulkan qalb, aql, iroda, g‘ayrat-shijoat, ehtiros, o‘ziga ishonch bo‘lishi shart.

Albatta, qalb, ehtiroslar juda jo‘shganda, nimani gapirish yoki gapirmaslik yoki qanday harakat qilishning nazorati ham aqlning qo‘lida. Xuddi shunday bu dunyoda atrofdagi odamlarga qanday ko‘rinish, muhitda o‘zimizni qanday tutish, ichimizdagi riyoni tashqariga chiqib ketishini oldini olish yoki berkitib turish, bir so‘z bilan aytganda, barcha harakatlarimizning nazorati ham aqlning qo‘lida. Shu boisdan aql tufayli yuzaga keladigan harakat irodani tashkil etadi. Irodaning vazifasi – voqelik ta’sirida yuzaga keladigan ehtiroslarga qarshi kurashishdir. Aynan iroda har qanday harakatni tormozlash, ehtiroslarni to‘xtatishga qodir.

Demak, aql irodaning shaxsiy qurolidir. Ammo qalb xuruj qilgandagina, aqlning kimligi ko‘zga tashlanadi. Shunday ekan, aql, hissiyot va irodaning o‘zaro integrativ rivojlanishi tufayli shaxs kamoloti refleksiya ta’sirida reallikka aylanadi.

Adabiyotlar

1. Xayriyev I. Irodani tarbiyalash komillikka eltadi. – Toshkent, “Mashhur-press” nashriyoti, 2021. 512 b.
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Ruhiy tarbiya. Poklanish. 1-juz. – T.: “SHarq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2008. – 447 b.
3. Selivanov V.I. Psixologiya volevoy aktivnosti. – Ryazan. 1974. – 276 s.
4. Haqiqat manzaralari. 96 mumtoz faylasuf / taqdirlar, hikmatlar, aforizmlar. – Toshkent, Yangi asr avlodi, 2012. – 372 b.
5. Ушинский Д.М. Избранные педагогические сочинения: В 2.т. / Под ред. А.И.Пискунова. – М.: Педагогика, 1974. – 584 с.
6. https://t.me/Samarqand_live.